

## KELAJAGI RIVOJLANAYOTGAN YANA BIR SOHA

**Bekzod Bafoyev**

*Buxoro davlat universiteti talabasi*

**Gaypbaeva Gulziya Talgat qizi**

*Toshkent davlat transport universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Jamoatchilik bilan aloqalar, axborot yordamida omma fikrini boshqarish, axborot, yangilik, Jamoatchilik bilan aloqalarning muhim shartlari, jamoatchilik fikrini tinglash.

**Kalit so'zlar:** Jamoa, jurnalistika, AQSH, zamonaviy, adabiyot, soha, rivojlanayotgan, PR(piаr),

Buyuk bobokalonlarimiz aql mash'ali ila turli fanlarga asos solingan.

Inson aqli-tafakkuri ila kashf etilgan jamiki fanlar mohiyatan bir-biri bilan uzviy aloqada ravnaq topadi. Falsafa, adabiyot, biologiya, kimyo, tarix, geografiya, matematika, fizika, geodeziya, astronomiya, sotsiologiya, informatika, kibernetika, elektronika, genetika kabi fanlar mantiqan bir-biri bilan chambarchas. Nafaqat fan sifatida, ishlab chiqarish sohalarida ham ularni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Aytaylik, adabiyot – barcha soha uchun birdek qadrli. U butun insoniyatning ma'nnaviy boyligi, ko'ngil mulki! Kimyo mo'jizalari kimni hayratga solmaydi, deysiz. Tabiat qonunlarini o'rgatuvchi fizikaning daxli bo'lмаган soha bo'lmasa kerak. Hisob-kitoblar yechimini matematika fanisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Butun borliq, kurrai zamindagi mamlakatlар, ularning chegaralari, poytaxtlari, xalqlari, iqlimi, turfa boyliklari haqida biz avvalo geografiya fani orqali tasavvurga egamiz.

Hayot voqeligiga aylangan ana shu fanlar mudom uzviyidir. Bu uzviylikni ayni kunlarda davom ettirib kelayotga, mukammallashtirib, takomillashib borayotgan yangi fanni esa so'nggi o'n yilliklar mo'jizasi deb atash mumkin. Negaki, u butun mohiyat-e'tiboriga ko'ra – fanlararo fan hisoblanadi. Bu fan – «Pablik rileyshnz» deb ataladi. Ingliz tilidan olingan «Public Relations» atamasi – «Jamoatchilik bilan aloqalar», «Jamoatchilik bilan munosabatlar» degan ma'nolarni anglatadi. «Public Relations» (bundan buyon – PR, piаr) iborasi ilk bor AQShning uchinchi prezidenti Tomas Jefferson tomonidan ishlatilgan. U 1807 yili «Kongressga yettinchi murojaati»da ushbu atamani birinchi marta qo'llagan<sup>1..</sup> Bundan maqsad, o'sha davrda hukumatning jamoatchilik bilan aloqalarini davlat darajasiga ko'tarish, ilmiytashkiliy jihatdan yo'lga qo'yish edi. Keyinchalik Edvard Bernayz bu iboraning mohiyatini «jamiyat manfaatlari yo'lidagi harakatdir»<sup>2</sup> deb ta'riflagan. Demak, «AQShda piarning paydo bo'lishi bevosita siyosiy jarayonlar mahsuli» bo'lgan. Oradan bir asr vaqt o'tib, alohida fan sifatida voqelikka aylangan PR tarixi o'sha davrdagi hodisalardan kelib chiqadi.

AQSHda bu hodisani yangi aloqa vositasi sifatida qabul qilgan. Tomas Jeffersonning quyidagi so'zlari demokratiya yo'lini tanlagan qator gazetalar uchun

shiordek bo'lib qoldi: «Agar menga hukumat bo'lsinu gazetalar bo'lmasin yoki gazetalar bo'lsin-u hukumat bo'lmasin – birini tanlang, deyishsa, men hech ikkilanmasdan hukumat bo'lmasa ham gazetalar bo'lishi kerak, degan bo'lardim»

Albatta, ushbu so'zlarni noto'g'ri talqin qilmasligimiz kerak. Tomas Jefferson gazeta va boshqa nashrlar mavqeini, ta'bir joiz bo'lsa, mas'uliyatini oshirishni ham ko'zda tutgan bo'lishi mumkin. Binobarin, hukumatning yo biror tashkilotning jamoatchilik bilan aloqalarini matbuotsiz, ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etib bo'lmasligini barchamizga kundek ravshan. Ijtimoiy munosabatlar qadimda qay darajada voqelikka aylanganini professor Najmuddin Komilovning quyidagi fikrlaridan ham anglash mumkin: «O'zbekistonda Yevropa demokratik davlatlariga xos xususiyatlар bilan birga, Sharq davlatchiligining bizning xalqimiz ruhiyatiga xos va mos tajribalarini saqlab qolish maqsadga muvofiq».

Zamonaviy piar vatani – AQShdir. Piar faoliyatini u yerdan G'arbiy Yevropa o'zlashtirib olgan. Har bir mamlakatda piar o'zining milliy ruhi va xususiyatlari bilan boyitilgan. Bu tabiiy jarayondir. Ijtimoiy hayotdagi har qanday yangilik turli davlatda o'ziga xos tarzda aks etadi.

Jamoatchilik fikrini o'rganish – u bilan aloqalarda muhim mezon hisoblanadi. Funksiya deganda amaliyotda ko'proq bu faoliyatni bajaradigan vazifalar nazarda tutiladi. V. Korolko ta'riflashicha, jamoatchilik bilan aloqalar umuman olganda 3 ta asosiy funksiyani bajaradi:

Jamoatchilikning fikrini o'rganish va uni kuzatish. PR orqali jamoatchilikning fikrini o'rganish va faqat shu yo'l bilan unga samarali ta'sir ko'rsatish mumkin. Agar jamoatchilik fikri o'z vaqtida o'rganilmasa, unda ijobiy maqsadga erishilmaydi. Jamoatchilik harakatini kuzatish. Demak, jamoatchilikning nafaqat fikrini o'rganish, balki, harakatini ham kuzatib borish muhimdir. Piarmen jamoatchilikning u yoki bu harakatlarida o'zini qanday tutadi, shuni aniqlab olishi kerak. Yangi vaziyatlar vujudga kelgan sari, ijtimoiy kayfiyatlar o'zgargan sari jamoatchilik o'zini qanday tutmoqda, piarmenning fikricha qay tomonga o'zgarmoqda, shuni oldindan bilishi taqozo etiladi. Aniqlik piar xodimi faoliyatida muhim o'r'in tutadi.

Tashkilot bilan jamoatchilik o'tasida ikki tomonlama manfaatni ta'minlash. Bir tomonlama emas, ikki tomonlama manfaatni ta'minlab, shuning natijasida jamoatchilik bilan hamkorlikni ravnaq toptirish lozim. Bunda hamkorlikning ikki tomonlama foydasi bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining «A xborot erkinligi prinsiplari va k afolatlari to‘g‘risida»gi qonuni. T., 2003.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining «Jurnalistlik faoliyatini him oya qilish to ‘g ‘risida»gi qonuni. T., 2003.
- 3.O‘zbekiston Respublikasining Muualliflik huquqi va turdosh huquqlar to ‘g ‘risida»gi qonuni. T., 2003.
- 4.O‘zbekiston Respublikasining «Reklama to‘g‘risida»gi qonuni. T., 2003.
- 5.Karimov L.A. A srlar. 1-10 jildlar. T., 1996-2002.
- 6.0 ‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2 0 0 0 -2 0 0 4 , 1-8 jild lar. L evitin L. Karla y I D.S.
- 7.Islom Karimov yangi O ‘z b e k isto n P rezidenti. T., 1996.
4. Авезова, Д. (2022). Инсоният тарихида БУЮК ЛЕВ ТОЛСТОЙ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 17(17). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/7234](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7234)
5. Авезова, Д. (2022). статья Методика преподавания языка иностранным студентам. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 25(25).
6. Abdurasulovna, B. M. (2022). Clinical Features of Rheumatoid Arthritis in Patients at the Age of Older 60 Years Old. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 650-655.
7. Авезова, Д. (2022). МОРФОНОЛОГИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ В РУССКОМ СЛОВООБАЗОВАНИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
8. Авезова, Д. (2022). КАКИЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ ЯВЛЯЮТСЯ ОБЩИМИ ДЛЯ ЧАСТЕЙ РЕЧИ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ?. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
9. Авезова, Д. (2022). ОСНОВНЫЕ РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ СТРУКТУРОЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
10. Farkhodovna, K. F., Rakhmatulloevna, N. U., & Abdurasulovna, B. M. (2022). ETIOLOGY OF CHRONIC RHINOSINUSITIS AND EFFECTIVENESS OF ETIOTROPIC TREATMENT METHODS (LITERATURE REVIEW). Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 377-381.
11. Авезова, Д. (2022). статья Составные части и их выражение в творчестве Абдуллы Каххора. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).
12. Авезова, Д. (2022). Spirituality Маънавият инсонни комилликка етаклайди. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).
13. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.

14. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.